

YOZUVCHI G'OYASI VA FOLKLORIZM

Botirova Feruza

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15573398>

Annotatsiya. Ushbu maqolada folklor va folklorizmning badiiy asarlardagi o'rni va folklor janrining Erkin A'zam qissalari bilan o'zaro uyg'unligiga urg'u berildi. Erkin A'zam asarlarida folklorizm tushunchasining mutanosibliyi, yozuvchi folklor namunalarini qo'llashdagi hayotiylik uslubi, ortiqcha soxtalik va jimjimadorlikdan holi holda xalqimiz merosini badiiy sindirish mahorati bilan zamonaviy o'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shdi. Xalq og'zaki ijodi namunalari asrlar davomida bizga yetib kelgan milliy qadriyatlarimiz timsoli bo'lib, ularning jozibadorligi, bebaho tasviri adib asarlarida alohida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar va so'z birikmalari: folklorizm, folklor, sintezlashgan, badiiy-tasvir vositalari, obrazlar, sujet, personaj, sarkazm, kinoya, maqol, matal;

Kirish. Folklor san'ati voqelikni mukammal aks ettirish xususiyati bilan chinakam ijodkorga katta imkoniyatlar yaratib beradi. Shu sababli o'zbek adabiyotining barcha taraqqiyot bosqichlarida folklorizmdan keng foydalanilgan. Xalq og'zaki ijod-san'ati makon va zamon tanlamaydi, u xalqimizning tomirlarida ildiz otgan madaniyati, urf-odatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bu janrda yaratilgan asarlar o'qimishli va xalqona ruhga ega bo'lganligi sababli kitobxon ong osti (shuur) ga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy qism. Erkin A'zam sarkazm ustasi hisoblanadi, u o'z asarlarida alohida so'z o'yinlariga to'xtalib, kinoya uslubidan foydalangan. Bu o'rinda yozuvchiga maqol, matal va turli aforizmlardan foydalanish mahorati katta ustunlik bergan. Erkin A'zam asarlaridagi folklor na'munalari shunchalik asar tarkibiga singib birlik hosil qilganki, natijada adib kitoblarida sun'iylik va yasamalik ta'siri umuman sezilmaydi. Bunga misol qilib "Guli-Guli" qissasini olishimiz mumkin. Asar boshdan oyoq sodda va tushunarli tilda yozilgan, Asarda bo'lgan voqealar ancha oldin sodir bo'lgan bo'lsada, undagi illatlar hali hanuz jamiyatda o'z yechimini to'liq topmagan insoniyat muammosidir. Yozuvchi asarda har bir qahramonga alohida ta'rif bilan to'xtatilib oddiy va murakkab folklorizmlardan foydalangan. Qissada sujetlar markazida salbiy qahramon "Maymun" obrazi turgan. Aynan uning tilidan aytilgan "guli-guli" hayvonga xos g'uldirash asar sarlavhasi sifatida tanlangan. Maymunga xos ta'rif berilganda uni yozuvchi axloqan buzuvchi ekanligini "suyagi buzuvchi" iborasi bilan beradi. Yana bu asrda bu iboraga sinonim ibora sifatida "suvda yotgan" aforizmi qo'llangan. "Damigayoq uchib ketadi", "Birovning olmasiga shox tashlamoq" kabi sifatlashlar bilan yozuvchi maymunni kitobxonga jonli tarzda tanishtirgan. Bu uslub sintezlashgan folklorizmlarning salbiy turiga misol bo'laoladi. Qissada Jiydali istiqbolsiz, davlat hisobiga kun ko'ruvchi tuman deb topilib, Qo'shdaryo tumaniga qo'shib yuboriladi. Bu holatni yozuvchi shunday tasvirlaydi: *"Mag'lub kelgan tarafning tarixiyu tabiati, unda tirikchilik qiladigan odamlar kim-istiqbollimi, istiqbolsizmi, ularning fel-atvori qanday-bunisi bilan birovning ishi yo'q edi." Taka bo'lsin sut bersin"-bizga suti kerak, suti, vassalom.* Asar qahramonlariga ularning tashqi sifatlariga qarab to'qilgan nomlar ham yozuvchi tomonidan yuksak mahorat bilan tanlangan. Masalan, "Soli baqiroq", "Ismoil telpakdo'z", "Rajab qora", "O'rmon kalta", "Qodir kalamush", "Momin kal", "Olma kelin". Asirlar davomida ota bobolarimiz odamlarning kasbi yoki ularning yaxshi-yu yomon sifatiga qarab laqab to'qishlari odat tusiga kirgan va yozuvchi yana bir o'rinda bizga adabiy merosimizni eslatgan. Qissada kinoyaviy badiiy shartlilik

vostasi- sarkazmdan ham keng foydalanilgan. Bunga misol asar personaji Soli baqiroq -"Biz ham siz kiygan etikni kiyganmiz" iborasi orqali o'zini hamma narsani bilishiga ishora qiladi. "Uzumning yaxshisi itning nasibasi", "Erkakka o'xshab" iboralari esa asardagi qahramonlarning teskari hislatlarini sifatlash uchun keltirilgan. Asarda insonlarning beparvoligi, savodining yo'qligi, soddaligi, ulardagi buzuq illatlar, maxtanchoqlik kabi xususiyatlari tufayli o'z hayotlarini g'aflatda o'tkazganligi tasvirlangan. Masalan "maymun" personaji umuman inson qiyofasiga ega emasligi, ham tashqi ko'rinish jihatdan ham ichki dunyosi orqali, bunga sabab qilib uning otasining qotil ekanligi ko'rsatilgan. Shu o'rinda ham adib kitobxonni yana bir mulohazaga chorlagan - "Qush uyasida korganini qiladi" - xalqimiz ma'qoli birdan har bir asar o'quvchisining yodiga tushadi, haqiqiy folklor ustasi shunday bo'lmaydimi aslida. Lekin sodda qishloq odamlari maymunning shuncha qilgan yomonliklariga parvo ham qilmaydi, o'g'rini topish o'rniga bir-birlariga bo'lgan shaxsiy adovati sababli xursand bo'lishadi. Ularning or-nomusi bolgan qizlari, kelinlarining shani toptalgan vaqtida ularga parvo qilmay kimning loteriyaga yutganiyu, kimning boyligini muhokama qilib o'tiraverishadi. Hattoki o'g'rining odamlarning uyiga kirishi ular uchun obru, maqtanish uchun vosita bo'ladi. Ibo hayosi yo'q juvonlar esa o'sha "o'g'ri" bilan bemaolol ko'ngil xushlashib bu voqeani bir umr hech kimga aytmaydilar. Bu sujetga yozuvchi "suvga tushganlar" deya tarif bergan. Erkin A'zam sohtalikdan yiroq, o'tkir so'zli shaxs. Bu uning asarlarida ham o'z isbotini topgan. Xususan, shu asarda yozuvchi asar qahramonlarini ayovsiz tanqid qilgan, ularning bor xulq-atvorlarini to'liq ochib bergan, bunga misol qilib Jiydalining Qo'shdaryo tumaniga qo'shib yuborilishiga qarshi bo'lgan ishsiz qolgan jurnalist O'rmon kalta obrazini olishimiz mumkin. Yolg'izgina shu jurnalist hukumatga tinmay xat yozishni boshlaydi, tumanni qaytadan ajratib berishlarini sorab. Bazi qishloqdoshlari uni - "Joni bori bitta shu" - deyishsa, bazilar bizdan odam chiqmasligini ular ham bilgan, O'rmon kalta o'zi ishsiz qolganligi tufayli shunday qilyapti deydi. "Bekorining amali ma'lum" - xalq maqolini tinmay aytadigan O'rmonboy esa bu gap-so'zlarga qaramasdan tinmay xat yozishda davom etadi. Jiydali tumani nihoyat ajratiladi, lekin yozuvchi shu nuqtaga kitobxonni yana fikrlashga chorlaydi. Shu yozilgan xatlar tufayli tuman qaytarildimi yoki o'zimi? Yozuvchi bir maqol orqali bir necha xil burilish bergan qissaga. Xalqimizda "Qing'ir ishning qiyig'i qirq yilda ham chiqadi" - degan maqol bor. Shu iboradan ijodkor juda chiroyli tarzda badiiy g'oya yasagan. Masalan: - *Har qanday sir-asror qirq yil o'tsa hamki, bir kun kelib baribr ochiladi, deydilarku* - jumlasini orqali folklor na'munasini sintezlashgan folklorizmga aylantirgan. Bu qishloq odamlarining maymunni qilgan buzuqliklariga etbor qilmasliklarini sababini ijodkor yana bir ajoyib jumla bilan keltirgan: - "Maymundan boshqa ham ordona shudgorni oralaganlar ham bor". Yozuvchining bunday mahoratiga tan bermaslikni aslo iloji yo'q.

Xulosa. Folklor so'z san'ati, milliy boyligimiz, madaniyatimizni o'zida aks ettirgan, otabobolarimizdan bizga me'ros bo'lib kelayotgan o'gitlar va nasihatlar to'plamidir. Folklorizm xalq og'zaki ijodini kelajak avlod uchun yozuvchi, adiblarimiz mahorati orqali asarlarda qo'llanilib, sintezlashib, yanada sayqallanib borayotgan na'munasidir. Zamonaviy adabiyotda bu janr ijodkorlarga yanada katta mas'uliyatlar yuklaydi. Chunki ijodkor folklorizm dan foydalanganda o'z ijro mahoratini folklor soyasida qoldirmasligi yoki bu janr qo'llanganda uning ta'siri sezilmasdan asarni quruq jilosiz qilib qo'ymasligi kerak. Serqirra ijodkor Erkin A'zam bu yo'nalishda o'zi ko'zlagan maqsadiga ortig'i bilan erishaoldi. Uning asarlari har qanaday davrda kitobxon uchun mos va xosdir.

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xazankovich Yu.G. Folklorno-epicheskiye traditsii v proze malochislennyykh narodov Rossii (na materiale mansiyskoy, neneskoy, nivxskoy, xantyyskoy, chukotskoy i zvenkiyskoy literatur): Avtoref. dis... dokt. filol. nauk. – Moskva, 2009;
2. Xazov V.K. Mifologemy rossiyaskoy kultury postsovetsskogo perioda (1990-ye gody): filosofskiy analiz. Avtoref. Kand filosof. Nauk. Astraxan, 2009. S.
3. Xo'jayev T. XV asr birinchi yarmi o'zbek adabiyoti va folklor. Filol. fan. nom. dis. avtoref. - Toshkent, 1996;
4. Xalilov M. Prozamiz taraqqiyotida folklorning ahamiyati // O'zbek tili va adabiyoti. - 1978. - №2
5. Erkin A'zam. Guli-Guli qissasi. - 2009.
6. Xoliqova D. Hozirgi o'zbek she'riyatida folklor an'analari va badiiy mahorat. Filol. fan. nom. dis. avtoref. - Toshkent, 2011.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademyashr, 2018.
8. Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizmlar. filol fan. Nomzodi diss. Toshkent, 2008.